



PSORIAZDA KOMBINATSIYALANGAN TERAPIYA: SCAFO PREPARATI VA TOR SPEKTRLI NB-UVB FOTOTERAPIYASINING BIRGALIKDAGI QO'LLANILISHILLANILISH

Muxiddinova Iqbola

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti

Dermatovenerologiya kafedrası

1-kurs magistranti

Ibragimov K.U.

Ilmiy rahbar: PhD,

Abbosxonova F.X.

Phd

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20523326>

Annotatsiya. Mazkur tezisda psoriaz kasalligini davolashda kombinatsiyalangan terapiyaning samaradorligi tahlil qilinadi. Xususan, SCAFO preparati va tor spektrli NB-UVB fototerapiyasining birgalikdagi qo'llanilishi natijasida klinik belgilar regressiyasi, yallig'lanish jarayonining kamayishi hamda bemorlarning hayot sifati yaxshilanishi o'rganildi. Tadqiqot natijalari kompleks davolash usuli monoterapiyaga nisbatan samaraliroq ekanligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: psoriaz, NB-UVB fototerapiya, SCAFO preparati, kombinatsiyalangan terapiya, dermatologiya, immun yallig'lanish.

Psoriaz surunkali, qaytalanuvchi kechuvchi yallig'lanishli teri kasalligi bo'lib, aholining hayot sifati va psixoemotsional holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Kasallikning rivojlanishida immun tizim disfunktsiyasi, genetik moyillik hamda tashqi omillar muhim o'rin tutadi. Zamonaviy dermatologiyada psoriazni davolashning samarali usullaridan biri tor spektrli NB-UVB fototerapiya hisoblanadi. Ushbu usul epidermal proliferatsiyani kamaytiradi va yallig'lanish mediatorlarini bostiradi.

Tadqiqotning maqsadi-psoriaz kasalligini davolashda SCAFO preparati va tor spektrli NB-UVB fototerapiyasining birgalikdagi qo'llanilish samaradorligini aniqlash hamda kompleks terapiyaning klinik natijalarga ta'sirini ilmiy asosda yoritishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari

- psoriaz kasalligining klinik va patogenetik xususiyatlarini o'rganish;
- NB-UVB fototerapiyasining terapevtik ta'sirini tahlil qilish;
- SCAFO preparatining yallig'lanishga qarshi samaradorligini baholash;
- kombinatsiyalangan terapiyaning klinik natijalarini aniqlash.

Psoriazda immun tizimining faollashuvi natijasida epidermis hujayralarining haddan tashqari ko'payishi kuzatiladi. Bu esa terida qizarish, qipiqanish va infiltrativ o'zgarishlarning rivojlanishiga olib keladi. Kasallikning uzoq davom etishi bemorlarning psixologik holati va ijtimoiy faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli psoriazni samarali davolash dermatologiyaning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

NB-UVB fototerapiyasi psoriazni davolashda keng qo'llaniladigan zamonaviy usullardan biri bo'lib, u T-limfotsitlar faolligini pasaytiradi hamda yallig'lanish mediatorlari ishlab chiqarilishini kamaytiradi. Natijada teridagi psoriatik blyashkalar regressiyaga uchraydi va kasallikning klinik belgilari kamayadi. Mazkur usulning afzalligi yuqori samaradorlik hamda nojo'ya ta'sirlarning nisbatan kam kuzatilishi bilan tavsiflanadi.

SCAFO preparati psoriazda yallig'lanish jarayonlarini kamaytirishga yordam beruvchi vositalardan biri sifatida qo'llaniladi. Preparat terining regeneratsiya jarayonlarini faollashtiradi, qichishish va qizarishni kamaytiradi hamda bemorlarning umumiy holatini yaxshilashga xizmat qiladi. Uni NB-UVB fototerapiyasi bilan birgalikda qo'llash kompleks terapevtik samarani yuzaga keltiradi.

Kombinatsiyalangan terapiya qo'llanilgan bemorlarda klinik simptomlarning regressiyasi tezroq kuzatiladi. Ayniqsa, eritema, deskvamatsiya va infiltratsiya darajasi sezilarli kamayadi. Monoterapiya bilan taqqoslaganda, kompleks davolash natijasida remissiya davrining uzayishi hamda kasallik qaytalanish chastotasining pasayishi qayd etiladi. Bu esa bemorlarning hayot sifatini yaxshilashda muhim omil hisoblanadi.

Psoriaz kasalligini davolashda SCAFO preparati va tor spektrli NB-UVB fototerapiyasining samaradorligi

Mazkur tadqiqotning maqsadi psoriaz kasalligini davolashda SCAFO preparati va tor spektrli NB-UVB fototerapiyasining birgalikdagi qo'llanilish samaradorligini aniqlash hamda kompleks terapiyaning klinik natijalarga ta'sirini ilmiy asosda baholashdan iborat.

Tadqiqot materiali va usullari

Tadqiqotda 20 nafar psoriaz bilan kasallangan bemor kuzatildi. Bemorlarning yoshi 18–55 yosh oralig'ida bo'lib, ularda psoriazning vulgar shakli aniqlandi. Barcha bemorlarga SCAFO preparati hamda tor spektrli NB-UVB fototerapiyasi kompleks tarzda qo'llanildi.

Davolash kursi davomiyligi: 8 hafta.

Fototerapiya haftasiga 3 marotaba olib borildi.

Klinik samaradorlik PASI indeksi orqali baholandi.


O'tkazilgan muolajalar

- Dermatologik ko'rik va anamnez yig'ish
- PASI indeksini aniqlash
- SCAFO preparatini kompleks davolash tarkibida qo'llash
- Tor spektrli NB-UVB fototerapiyasi
- Davolashdan oldin va keyin klinik holatni baholash
- Natijalarni statistik tahlil qilish


Natijalar

Davolash natijasida bemorlarning aksariyatida teri qichishishi, infiltratsiya va eritema sezilarli kamaydi. PASI ko'rsatkichlari davolashdan keyin o'rtacha 65–75% ga kamaygani kuzatildi. Kompleks terapiya yaxshi o'zlashtirildi va jiddiy nojo'ya ta'sirlar qayd etilmadi.

1-diagramma. PASI ko'rsatkichlarining o'zgarishi



2-diagramma. Davolash samaradorligi (%)



20 nafar bemorning natijalari

Bemor	Oldin PASI	Keyin PASI	Yaxshilanish %
1.0	18.0	6.0	66.7
2.0	20.0	7.0	65.0

3.0	16.0	5.0	68.8
4.0	22.0	8.0	63.6
5.0	19.0	7.0	63.2
6.0	17.0	6.0	64.7
7.0	21.0	7.0	66.7
8.0	23.0	9.0	60.9
9.0	18.0	5.0	72.2
10.0	20.0	6.0	70.0
11.0	19.0	7.0	63.2
12.0	17.0	5.0	70.6
13.0	22.0	8.0	63.6
14.0	24.0	9.0	62.5
15.0	16.0	4.0	75.0
16.0	18.0	5.0	72.2
17.0	21.0	7.0	66.7
18.0	20.0	6.0	70.0
19.0	19.0	6.0	68.4
20.0	23.0	8.0	65.2

Xulosa

SCAFO preparati va tor spektrli NB-UVB fototerapiyasining birgalikdagi qo'llanilishi psoriaz bilan kasallangan bemorlarda yuqori klinik samaradorlik ko'rsatdi. Kompleks terapiya PASI indeksining sezilarli pasayishiga olib kelib, kasallik simptomlarini kamaytirishda samarali usul ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdraxmanova A.S., Batpenova G.R., Iskakova B.K. Psoriaz bilan og'rigan bemorlarda vegetativ disregulyatsiya // "Dermatovenerologiyaning yangi jihatlar: fan va amaliyot" 5-xalqaro konferensiyasi tezislari to'plami.-Almati, 2008.-B. 12.
2. Adaskevich V.P. Akne va rozatsea.-Sankt-Peterburg, 2000.-130 b.
3. Ayzyatulov R.F., Yuximenko V.V. Psoriatik kasallikning yuzaga kelishi va kechishida xavf omillarining ahamiyati // Dermatologiya va venerologiya xabarlari.-2001.-№1.-B. 41-43.
4. Aliyeva P.M. Psoriazning lipid almashinuvi buzilishi, ateroskleroz va qandli diabet bilan assotsiatsiyasi: tibbiyot fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati.-Moskva, 1980.-20 b.
5. Anisimov V.N., Vinogradova I.A. Yorug'lik rejimi, melatonin va saraton rivojlanish xavfi // Onkologiya masalalari.-2006.-52-jild, №5.-B. 491-498.
6. Antonyev A.A., Belova-Raximova L.V. Dermatologik amaliyotda bioritmologiyaning ayrim masalalari // Dermatologiya va venerologiya axborotnomasi.-1987.-№12.-B. 12-15.
7. Arushanyan E.B., Beyer E.V. Epifiz melatoninning immunotrop xususiyatlari // Eksperimental va klinik farmakologiya.-2002.-65-jild, №5.-B. 73-80.
8. Archakov A.I. Biomembranalar: tuzilishi va funksiyalari // Tibbiy jihatlar.-Riga, 1981.-B. 167-184.

9. Arshavskiy I.A. A.A. Uxtomskiyning xronotip haqidagi ta'limoti va uning individual rivojlanish biologiyasidagi vaqt mexanizmlari hamda qonuniyatlarini tahlil qilishdagi ahamiyati // Fizika fanlari yutuqlari.-1991.